

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2026-yil 21-may № 9 (1571)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

OBOD HUDUD

Qurbon hayiti arafasida ham "O'zmetkombinat" AJda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2



MUAMMO HAL QILINDI

... bu yangilik faxriylar uchun nafaqat amaliy yengillik, balki katta ma'naviy e'tibor ramzi sifatida qabul qilindi.

3



SAVOBTALAB

Bunday fidokor insonlar boshqalardan rahmat kutmaydi, lekin shunday odamlar bor ekan dunyoda yaxshilik yashayveradi.

4



KIRIB KELAYOTGAN QURBON HAYITI MUBORAK BO'LSIN!



TAQVO VA INSONPARVARLIK BAYRAMI

Muborak Qurbon hayiti inson qalbi-ga ezgulik, mehr-oqibat va shukronalik tuyg'ularini olib kiradigan ulug' ayyom-lardan biridir.

Ushbu qutlug' bayram musulmon ummati hayotida alohida o'rin tutadi. Bu kunda hamma barobar xursand bo'ladi, Alloh taoloning ko'plab xayru barakasi yer yuzida-gi bandalari ustiga yog'iladi. Zero, Qurbon hayiti nafaqat qurbonlik qilish ibodati, balki insonning Alloh taolaga bo'lgan sadoqati, ixlosi va taqvosini namoyon etadigan muborak kun hisoblanadi.

Qurbon hayitining tarixi hazrati Ibrohim alayhissalom va o'g'illari Ismoil alayhissalom hayotlaridagi ulkan sinov bilan bog'liq. Alloh taolo Ibrohim alayhissalomni jigarbandidan – farzandi bilan sinadi. U zot Robbisining amriga to'la taslim bo'lib, buyurilgan ishni bajarishga tayyor ekanliklarini amaliy ravishda namoyon qildilar. Ismoil alayhissalom ham otalarining buyruqlariga bo'ysunib, yuksak sabr va itoat namunasini ko'rsatdilar. Ana shu buyuk ixlos va sadoqat sabab Alloh taolo ularga jannatdan katta bir qo'chqorni ato etdi. Ibrohim alayhissalom o'sha qo'chqorni qurbonlikka so'ydilar.

Bu voqea barcha mo'minlar uchun ibrat va ma'naviy saboq bo'lib qoldi.

Qurbonlik qilish boshqa ibodatlar kabi Alloh uchun deyilsa-da, aslida bandasi-niing manfaati uchundir. Qurbonlik qilingan hayvonning go'shtidan so'yg'an odamning o'zi va faqir-miskinlar manfaatdor bo'ladi. Alloh taolo esa insonning qalbidagi niya-tiga ko'ra muomala qiladi. Qur'oni Karim-da bunday marhamat qilinadi: "Ularning go'shtlari ham, qonlari ham zinhor Allohga yetmas. Lekin Unga sizdan taqvo yetadir" (Haj surasi, 37-oyat).

Haqiqatdan ham, qurbonlikka so'yilgan hayvonlarning go'shtlariga ham, qonla-riga ham Alloh taolo muhtoj emas. Qurbon-lik qilishdan maqsad bandaning Yaratuvchi amriga itoatini va taqvosini namoyon etish-dir. Banda ixlos bilan qurbonlik qilib, Alloh yo'lida jonliq so'ymoqdami, demak, o'sha bandaning Alloh taolaga taqvosi bor ekan. Shu bilan birga, qurbonlik qilish banda uchun Allohni ulug'lashga bir fursatdir.

Bugungi kunda ham Qurbon hayiti jami-yatimizda insonparvarlik, saxovat va bag'rikenglik tuyg'ularini mustahkamlash-ga xizmat qilib kelmoqda.



"O'ZMETKOMBINAT" AJ

INNOVATSIYALAR VA ISHLAB CHIQRISHNING YANGI BOSQICHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning 2026-yil 10-fevraldagi PQ-56-son qaro-riga muvofiq, "O'zmetkombinat" AJ faoliyati-ni qo'llab-quvvatlash va sanoat salohiyatini yanada oshirish maqsadida "UMK Texnopark" loyihasining bosh rejasi ishlab chiqilgan.

Mazkur yirik tashabbus kombinat rivojida yangi bosqichni boshlab berib, zamonaviy texnologiyalar, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hamda xorijiy inves-titsiyalarni jalb etishga qaratilgan.

Loyiha doirasida "UMK Texnopark" hududi-da bir qator istiqbolli yo'nalishlar bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish rejalashtir-ilmoqda. Xorijiy investorlar ishtirokida zamonaviy texnologiyalarga asoslangan sanoat korxonalarini barpo etish orqali respublika iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, qaror ijrosini ta'minlash maqsadi-da "UMK Texnopark" bo'yicha Vazirlar Mahkama-sining tegishli qaror loyihasi ham ishlab chiqildi.

Hozirgi kunda kombinat hududidagi 90 gektar bo'sh maydon mazkur texnopark uchun ajratilgan bo'lib, ushbu hududda bir qator yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Loyihalar natijasida import o'rnini bosuvchi mahsulotlar – ko'priqli va chorpoyali yuk ko'ta-ruvchi kranlar, atrof-muhitni tozalovchi ekologik uskunalar, olovbardosh materiallar, turli metal-lokonstruksiya hamda boshqa sanoat mahsu-lotlari ishlab chiqarilishi rejalashtirilmoqda.

Eng muhimi, ushbu tashabbuslar natijasida mamlakatimizda 3 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratiladi.

"UMK Texnopark" loyihasi – bu faqat yangi ishlab chiqarish maydonlari emas, balki "O'zmet-kombinat"ning innovatsion rivojlanish strategiya-si, sanoat modernizatsiyasi va xalqaro hamkorlik-dagi yangi bosqichidir.

Ismat DIYOROV.

KIRIB KELAYOTGAN QURBON HAYITI MUBORAK BO'LSIN!

TAQVO VA INSONPARVARLIK BAYRAMI

1 Ayniqsa, ehtiyojmand oilalar, yetim-esirlar, kam ta'minlangan insonlar holidan xabar olish, ularga mehr ko'rsatish va qurbonlik go'shtidan ulashish ushbu ayyomning eng go'zal fazilatlaridan biridir. Zero, Islom dini insonlarni o'zaro mehr-oqibatli bo'lishga, bir-birini qo'llab-quvvatlashga da'vat etadi.

Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam hadisi sharifda marhamat qilib: "Qurbonlik qilish chiroyli amallardanidir. U bandani dunyoda balolardan va oxiratda ofatlardan himoya qiladi. Hayit namozini o'qib, qurbonlik so'ygan mo'minlar mening ummatimdandir", – deb marhamat qilganlar. Qurbonlik so'yishning avvali hayit namozi ado etilganidan so'ng boshlanadi. Uning oxirgi vaqti esa hayitning uchinchi kuni asr vaqtigachadir.

Qurbonlik – shunchaki hayvon so'yish emas, balki bandaning Alloh taolaga bo'lgan ixlosi, taqvosini va itoatining amaliy ifodasidir. Shu bois Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uni "chiroyli amallardan" deb ta'riflaganlar. Qurbonlik insonni "dunyoda balolardan va oxiratda ofatlardan himoya qiladi", deb ta'kidlanishi, ixlos bilan qilingan qurbonlik inson qalbiga xotirjamlik, xonadonga baraka va jamiyatga

mehr-oqibat olib kiradi. Alloh yo'lida qilingan har bir xayrli amal inson uchun himoya va savob sabab bo'ladi.

Qurbonlik faqat moddiy ibodat emas, balki ma'naviy tarbiya vositasi hamdir. Inson bu ayyomda nafaqat molidan, balki qalbidagi yomon xulq va illatlardan ham voz kechishga harakat qilishi lozim. Kibr, hasad, g'iybat, adovat kabi salbiy illatlardan poklanish inson ma'naviyatining yuksalishiga xizmat qiladi.

Hayit kunlari qarindosh-urug'lar bilan diyorlashish, bemorlar holidan xabar olish, ota-ona xizmatida bo'lish, qo'ni-qo'shnilar bilan yaxshi munosabatni mustahkamlash kabi ezgu ishlarga alohida ahamiyat qaratish zarur. Chunki bunday amallar jamiyatda o'zaro hurmat, ahillik va hamjihatlik muhitini qaror toptiradi.

Yurtimizda diniy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor tobora kuchayib, muqaddas bayramlarimiz keng nishonlanayotgani xalqimizning ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va bag'rikenglik muhitini yanada mustahkamlamoqda.

Ta'kidlash joiz, haj mavsumi va Qurbon hayiti arafasida muhtaram yurtboshimiz tomonidan

amalg oshirilgan ikki muhim tadbir ham saxovat va insoniy mehr-oqibatni ifoda etuvchi qadamlar bo'ldi. Birinchidan, qariyb barcha ulug' shayxlarimizning ustozlari Hazrati Sulton Xo'ja Ahmad Yassaviyning Turkiston shahridagi qadamjosi yaqinida besh ming namozxonaga mo'ljallangan muhtasham masjid qurilib, qozoq birodarlarimizga tortiq qilindi va ikkinchisi, yurtimizdan yuz nafar fuqaro "Prezident hojisi" maqomida Saudiya Arabistoni Podshohligiga yo'l oldi. Ayni kunlarda haj ziyoratidagi yurtimizdan borgan 15 mingdan ziyod hojilarimiz Makka shahrida yurtimiz ravnaqi, aziz xalqimiz farovonligini so'rab duoyi xayrlar qilmoqdalar. Alloh taolo bu ezgu duolarni o'z dargohida husni qabul qilsin!

Aziz yurtdoshlar! Muborak Qurbon hayiti ayyomini ezgu niyatlar, shukronalik va yaxshi amallar bilan qarshi olaylik. Xonadonlarimizdan mehr-oqibat, fayzu baraka arimasin. Yurtimiz tinch, xalqimiz omon bo'lsin. Qilgan qurbonliklarimiz, duo va ibodatlarimiz Alloh taolo dargohida qabul bo'lsin.

Ergashboy HAMIDOV,
Bekobod shahar bosh imom-xatibi.

OBOD HUDUD – SOG'LOM MUHIT

KORXONADA EKOLOGIK MUHIT YAXSHILANMOQDA



Mamlakatimizda hududlarini obodonlashtirish, sanitariya holatini yaxshilash va yashil maydonlarni kengaytirishga qaratilgan keng ko'lamli hashar tadbirlari izchil davom etmoqda. Ayniqsa, yirik sanoat korxonalarida bu kabi tashabbuslar nafaqat ish muhitini yanada fayzli qilish, balki ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Qurbon hayiti arafasida, yurtimizning barcha hududlarida bo'lgani kabi, "O'zmetkombinat" AJda ham obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Korxona xodimlari jamoaviy sa'y-harakat bilan hududlarni tozalash, yashil maydonlarni parvarishlash va atrof-muhit musaffoligini ta'minlash ishlarida faol ishtirok etmoqda. Bu esa korxona hududlarining yanada ozoda, tartibli va fayzli ko'rinish olishiga xizmat qilyapti.

Tadbirlar davomida maishiy

chiqindilarni bartaraf etish, daraxt va manzarali o'simliklarga agrotexnik xizmat ko'rsatish, yo'laklar hamda ishlab chiqarish hududlarini tozalash ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, yangi ko'chatlar ekish, mavjud yashil hududlarni kengaytirish va gulzorlarni parvarishlash ishlariga ham alohida ahamiyat berilmoqda. Mutaxassislar ta'kidlashicha, bunday tadbirlar nafaqat ekologik

muhitni yaxshilaydi, balki jamoada mas'uliyat, hamjihatlik va tabiatga ehtirom tuyg'usini mustahkamlaydi. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalarida sanitariya talablariga qat'iy rioya etilishi mehnat unumdorligi va xodimlar salomatligi uchun muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda "O'zmetkombinat" AJda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini belgilangan reja asosida bosqichma-bosqich davom ettirilmoqda. Amalg oshirilayotgan ishlar natijasida hududlarning ekologik qiyofasi yanada yaxshilanib, korxona atrofida sog'lom va musaffo muhit shakllanmoqda. Hashar tadbirlari esa yurtimizda azaldan qadriyat sifatida e'zozlanib kelayotgan hamjihatlik, mehr-oqibat va obodlik an'alarining amaliy ifodasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Bahodir RAHMONQULOV.



PROFILAKTIK SEMINARLAR

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yong'in xavfsizligi madaniyatini oshirish va mehnat jamoalari o'rtasida hushyorlikni kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda "Dolzarb 30 kun" profilaktik oyiligi davom etmoqda.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashabbusi bilan 1-maydan 31-mayga qadar o'tkazilayotgan mazkur oylik doirasida korxona va tashkilotlarda turli targ'ibot va profilaktik tadbirlar tashkil etilmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri kombinatda ham o'tkazildi. Korxonaning barcha tarkibiy bo'linmalarida tashkil etilgan profilaktik seminarlarda mutaxassislar tomonidan favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish, yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilish hamda ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarning oldini olish bo'yicha batafsil tushuntirishlar berilyapti.

Seminar davomida ishtirokchilarga texnika xavfsizligi talab-

lariga rioya qilishning ahamiyati, favqulodda holatlarda tezkor qaror qabul qilish va xavfsiz evakuatsiya choralari haqida amaliy tavsiyalar taqdim etilmoqda. Tarkibiy bo'linma ishchi-xodimlari tadbirda faol ishtirok etib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan atroflicha javob olmoqdalar.

Tadbirda favqulodda holatlarda inson omilining o'rni, mas'uliyat va intizomning ahamiyatiga ham alohida urg'u berildi. Mutaxassislar tomonidan hayotiy misollar asosida tushuntirishlar berilib, ehtimoliy xavflarning oldini olishda profilaktikaning muhim o'rni ta'kidlandi. Bunday seminar va profilaktik uchrashuvlar mehnat jamoalari xavfsizligini ta'minlash, xodimlarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash hamda ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsiz muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ravshan RAHMONOV,
FV va RXB muhandisi.

“O‘ZMETKOMBINAT” FAXRIYLARIGA YANGI IMKONIYAT BERILDI

TAKLIF AMALDA O‘Z YECHIMINI TOPDI

Gazetamizning shu yil 9-apreldagi 6-sonida kombinat mehnat faxriysi Sobir Yo‘ldoshev tomonidan tayyorlangan “Qalbga muhrlangan maskan” sarlavhali maqola e‘lon qilingan edi. Unda ko‘p yillar davomida “O‘zmetkombinat” Ajda sidqidildan mehnat qilib, bugungi kunda nafaqa hayotini kechirayotgan faxriylarning mehnat maskaniga bo‘lgan sog‘inchi, ular uchun korxona shunchaki ish joyi emas, balki hayot maktabi ekanligi samimiy ifodalandi.

Maqolada, ayniqsa, faxriylar uchun o‘z mehnat faoliyati davom etgan sexlarga kirish, o‘sha davr xotiralarini yana bir bor ko‘rish istagi, ammo amaldagi tartib-qoidalar sabab bu imkoniyat cheklangani haqidagi fikrlar ko‘pchilikning e‘tiborini tortgan edi. Shu bilan birga, muallif tomonidan faxriylar uchun maxsus ekskursionlar tashkil etish taklifi ilgari surilgandi.

Ushbu taklif va bildirilgan

samimiy mulohazalar e‘tiborsiz qolmadi.

Yaqinda “O‘zmetkombinat”-da Metallurglar kuni munosabati bilan tashkil etilgan tantanali tadbirda ko‘p yillar davomida korxona rivojiga ulkan hissa qo‘shgan mehnat faxriylari ham taklif etilib tadbir o‘tkazildi. Tadbir davomida ularning 30–40, hatto 50 yillik fidokorona mehnati alohida e‘tirof etildi.

Eng muhimi, shu munosabat bilan faxriy mehnatkashlarga maxsus “Faxriy mehmon” maqomi berilishi haqida qaror qabul qilindi. Ularga maxsus ruxsatnomalar topshirilib, endilikda “O‘zmetkombinat” hududiga istalgan vaqtda, belgilangan tartib asosida kirish imkoniyati yaratildi.

Bu yangilik faxriylar uchun nafaqat amaliy yengillik, balki katta ma‘naviy e‘tibor ramzi sifatida qabul qilindi. Ularning ko‘p yillik mehnati, korxona taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi yana bir bor yuksak qadr topdi.

Tadbirda ta‘kidlanganidek,



mehnat faxriylarining hayoti bugungi yosh avlod uchun katta maktab. Ularning tajribasi, hayotiy yo‘li va kasbiy fidoyiligi yoshlar uchun ibrat manbai bo‘lib xizmat qiladi.

“Faxriy mehmon” maqomi esa ana shu avlodlar o‘rtasidagi uzviylikni yanada mustahkamlab, korxona an‘analarining davom

etishiga xizmat qiladi.

Shu tariqa, gazetamizda e‘lon qilingan oddiy bir taklif amalda o‘z yechimini topdi va bu holat mehnat insonlariga bo‘lgan hurmat va e‘tiborning yana bir yorqin ifodasiga aylandi.

Diyor ZULFIQOROV.

BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ



Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosati darajasidagi eng muhim vazifalardan biriga aylanadi. Ayniqsa, metallurgiya kabi strategik ahamiyatga ega sohalarida shaffoflik va qonuniyligni ta‘minlash korxona barqarorligi, ishlab chiqarish samaradorligi hamda jamoadagi sog‘lom muhitni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Metallurgiya kombinatida har bir qaror, har bir hujjat va har bir ish jara-yoni adolat va qonun ustuvorligi asosida amalga oshirilishi zarur. Chunki korrupsiya nafaqat iqtisodiy zarar keltiradi, balki jamoada ishonchsizlik muhitini yuzaga keltirib, halol mehnat qadrini pasaytiradi.

Korrupsiya – bu shaxsiy manfaat yo‘lida xizmat vakolatidan noqonuniy foydalanishdir. U pora olish yoki berish, mansab vakolatini suiiste‘mol qilish, tanish-bilishchilik va boshqa qonunga zid holatlarda namoyon bo‘ladi. Bunday illat taraqqiyotga to‘sqinlik qilib, korxona nufuziga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashish har bir rahbar va xodimning muhim burchi hisoblanadi. Har bir inson o‘z vazifasiga vijdonan yondashib, qonun va ichki tartib-qoidalarga qat‘iy amal qilishi lozim. Jamoada halollik, ochiqlik va mas‘uliyat muhiti ustuvor bo‘lgandagina yuqori natijalarga erishish mumkin.

Korrupsiyaning oldini olishda profilaktika ishlari alohida ahamiyatga ega. Xususan, kadrlarni tanlash jara-yonlarini adolatli tashkil etish, xarid va tender ishlarida shaffoflikni ta‘minlash, ichki nazorat tizimini kuchaytirish muhim vazifalardan sanaladi. Shuningdek, xodimlarning huquqiy bilim va madaniyatini oshirish ham korrupsiyaga qarshi immunitetni mustahkamlaydi.

Bugun raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ham korrupsiya xavfini kamaytirishda muhim omil bo‘lmoqda. Elektron tizimlar inson omilini qisqartirib, qaror qabul qilish jarayonlarini yanada ochiq va shaffof qilish imkonini bermoqda.

Halol mehnat va pok vijdon har qanday yutuqning asosidir. Korxonada adolat va qonuniyligi ustuvor bo‘lsa, mehnat unumdorligi oshadi, jamoada o‘zaro hurmat va ishonch mustahkamlanadi. Shu sababli har bir xodim korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishi, har qanday qonunbuzilish holatlariga befarq qaramasligi zarur.

Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi. Unga qarshi kurashish esa barqaror rivojlanish, ishonch va adolatli mehnat muhitini ta‘minlashning muhim shartidir. Korrupsiyaga qarshi kurashish bu faqat bugungi kun talabi emas, balki kelajak avlod oldidagi yuksak mas‘uliyat hamdir. Metallurgiya kombinati jamoasi halollik, shaffoflik va qonuniyligi tamoyillariga tayangan holda faoliyat yuritisa, bu nafaqat korxona rivojiga, balki mamlakat taraqqiyotiga ham munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Karim NORMATOV,
kombinatning Komplaens xizmati
bilan hamkorlikda tayyorlandi.

SUD ZALIDAN


QONUNGA HURMAT –
BARQARORLIK GAROVI

Yurtimizda qonun ustuvorligini ta‘minlash, mulk daxlsizligini muhofaza qilish va huquqbuzarliklarning oldini olishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, korxona va tashkilotlar mol-mulkini asrab-avaylash har bir fuqaroning muhim burchi hisoblana-di. Jinoyat ishlari bo‘yicha Bekobod shahar sudida 2026-yil aprel oyining 13-kuni O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 61-moddasi 1-qismi bilan fuqaro Alim Uraskulovga nisbatan to‘plangan ma‘muriy ish ko‘rib chiqildi.

Sud hujjatlarida qayd etilishicha, 2025-yil 5-noyabr kuni “O‘zmetkombinat” Ajning 2-sonli avtonazorat o‘tish joyida xizmat olib borayotgan qo‘riqchilar tomonidan Alim Uraskulovning 2 dona amal choynakni olib chiqishga uringani aniqlangan.

Sud majlisida huquqbuzar o‘z aybiga to‘liq iqror bo‘lib, qilgan ishidan pushaymonligini bildirgan hamda bunday holat boshqa takrorlanmasligini ma‘lum qilgan.

Sud tomonidan ish materiallari, ma‘muriy bayonnoma, ashyoviy dalillarni olish bayonnomasi va boshqa hujjatlar o‘rganilib, huquqbuzarning aybi to‘liq isbotlangan deb topildi.



Sud qaroriga ko‘ra, huquqbuzar O‘zbekiston Respublikasi Mjtkning 61-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etgan deb topilib, unga bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida – 412 ming so‘m jarima jazosi tayinlandi.

Shuningdek, olingan 2 dona amal choynak egasiga qaytarilgani inobatga olindi.

Har qanday huquqbuzarlik, hatto u mayda ko‘rinishda bo‘lsa ham, qonun oldida javobgarlikka sabab bo‘ladi. Mulkka nisbatan ehtiyotkor va halol munosabatda bo‘lish, jamiyatda qonuniyligi va intizomni ta‘minlashning muhim shartidir.

Sudlar tomonidan bunday ishlarga huquqiy baho berilishi fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash va kelgusida huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Farhod ZOKIROV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha
Bekobod shahar sudi sudyasi.

IBRAT OLGANGA IBRATDIR DUNYO

SHUNDAY ODAMLAR KO'P BO'LSIN!

Bir guruh ishchilar dam olish kunini zavod hududidan tashqarida, sokin bog'da o'tkazishga qaror qilishdi. Ular metallurgiya sohasida mehnat qilar, odatda issiq pechlar va shovqinli sexlar orasida vaqt o'tkazar edilar. Bu safar esa tabiat qo'ynida hordiq chiqarishar, bolalar esa yaqindagi maydonda o'ynab, kulishardi.

Bir payt uzoqroqda eski kiyimdagi, sochlari oqargan bir kishi ko'ringdi. U sekin yurar, yerga qarab, nimalarnidir olib, xaltaga solardi. Uning harakatlari g'alati tuyular, ba'zi ishchilar bolalarini undan uzoqroq bo'lishga chaqirdilar.

Qariya esa hech kimga ozor bermas, vaqt-vaqti bilan ular tomonga qarab jilmayib qo'yardi. Ammo hech kim u bilan suhbatlashmadi, salomlashmadi ham.

Oradan vaqt o'tib, ishchilar o'sha qari kishi sobiq metallurg bo'lib, ko'p yillar davomida ishchilar jarohat olmasligi uchun sexlarda xavfli temir parchalarini tozalash bilan shug'ullanganligini bilib qolishdi. Hatto nafaqaga chiqqanidan keyin ham u bu odatidan voz kechmay, odamlar yuradigan joylarda shisha siniqlari va boshqa kesadigan narsalarni yig'ar ekan. U odamlar xavfsizligi uchun yashashda davom etardi.

Ko'pincha biz mensimagan yoki ahamiyat bermagan insonlar aslida savobli ishni – bizning va farzandlarimizning xavfsizligini ta'minlashar ekan. Ular boshqalardan rahmat kutmaydi, lekin shunday odamlar bor ekan dunyoda yaxshilik yashayveradi.

Diyor ZULFIQOROV.

QISQA VA TA'SIRLI
HIKOYALAR

CHO'MICHDA BORI...

Choynakdan piyolaga faqat uning ichidagi narsa quyiladi. Agar choynakda choy bo'lsa, undan asal chiqishini istasangiz ham, baribir faqat choy quyiladi.

Insonlar bilan ham xuddi shunday: ba'zan ayrim odamlardan mardlik, bilim yoki mehr-oqibat, g'amxo'rlik kutish befoyda. Chunki ularning qalbi va ongi bunday fazilatlar bilan to'ldirilmagan.

KAPTAR VA ESHAK

Bir qora kaptar boshqalarga o'xshab oq bo'lmaganidan o'ksinib yashar ekan. U rangini o'zgartirish uchun turli yo'llarni sinab ko'rdi, lekin barchasi befoyda bo'ldi.

Bir kuni u eshaklarning donosidan qanday qilib oqarish mumkinligini so'rabdi. Eshak esa bu savolga javob topolmay, boshini daraxtga uraverib, oxiri halok bo'libdi.

Kaptar bu holatni ko'rib, shunday xulosaga kelibdi: dono va o'jar eshak bo'lishdan ko'ra, qora kaptar bo'lish afzal ekan.

HIKMATLAR SANDIG'IDAN

Har bir kunni o'lcha, sarflagan har bir daqiqangni hisobga ol! Faqat vaqt masalasidagina xasislik qilish mumkin.

Tomas Mann,
nemis yozuvchisi.

O'rtamiyona odam vaqtini tez o'tkazish payida bo'ladi, iste'dod egasi esa vaqtdan foydalanish payida bo'ladi.

Artur Shopengauer,
nemis faylasufi.

Inson boshiga tushishi mumkin bo'lgan eng og'ir yo'qotish – vaqtini boy berishdir.

Teofrast,
qadimgi yunon faylasufi.

SPORT * SPORT * SPORT * SPORT * SPORT * SPORT * SPORT

KESKIN BAHSLAR

O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni arafasida "O'zmetkombinat" AJ kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan kombinat ishchilari o'rtasida shaxmat turniri tashkil etildi.

Musobaqa turli bo'linmalarda faoliyat yuritayotgan intellektual o'yin ixlosmandlarini birlashtirib, nafaqat sport bellashuvi, balki mantiqiy fikrlash, sabr-toqat va strategik tafakkur bayramiga aylandi. Dastlabki partiyalardan oq shaxmat taxtalari ustida keskin va chinakam qiziqarli bahslar kechdi.

Turnirda korxonaning turli bo'linmalaridan vakillar ishtirok etishdi. Musobaqa yakunlariga ko'ra, erkaklar o'rtasida "Servis" bo'linmasi vakili Islombek Qulmatov g'olib bo'ldi. Ikkinchi o'rinni Botir Madmarov (QPM), uchinchi o'rinni esa Doston Husainov (QPM) egalladi.

Ayollar o'rtasida esa eng yaxshi natijani Mavlyuda Kenjayeva (Klining xizmati) qayd etdi. Kumush medal Munojaat Azamovaga ("Bekobod



Emal" MCHJ), uchinchi o'rin esa Rushana Berdiqulovaga (QPM) nasib etdi.

Tashkilotchilar ta'kidlashicha, bunday turnirlar nafaqat shaxmatni ommalashtirishga, balki korporativ ruhni mustahkamlash, do'stona muloqotni rivojlantirish va jamoada sog'lom raqobat muhitini yaratishga ham xizmat qiladi.

Ravshan BOLTABOYEV.

"KASABA KUBOGI" EGASINI TOPDI

"O'zmetkombinat" AJ kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan muhandis-texnik ishchilar o'rtasida tashkil etilgan "Kasaba kubogi" mini-futbol turniri yakunlandi. Musobaqa metallurglar kasb bayrami munosabati bilan o'tkazilgan eng yorqin sport tadbirlaridan biriga aylandi. Turnirda har bir uchrashuv keskin kurashlarga boy o'tdi.

Bronza medallari uchun kechgan bahsda QPM jamoa-

si EPEB ustidan 3:1 hisobida ishonchli g'alabaga erishdi. Uchrashuv shiddatli va tomoshabop tarzda o'tdi, har ikki jamoa futbolchilari esa so'nggi daqiqalargacha kurash olib borib, o'zlarining matonati namoyon etdilar.

Ijro apparati hamda "Bekobod Emal" MCHJ jamoalari o'rtasidagi final uchrashuvi yuqori tezlikda kechib, ko'plab xavfli vaziyatlarga boy bo'ldi. Ijro apparati jamoasi bu uchrashuvda 5:2 hisobida g'alaba qozondi hamda "Kasaba kubogi" sohibiga aylandi. Tashkilotchilar ta'kidlashicha, bunday musobaqalar sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish, mehnat jamoasi birlamligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

G'OLIBLAR
ANIQLANDI

Kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan metallurglar kuni munosabati bilan ishchi-xodimlar o'rtasida sportning kurash turi bo'yicha musobaqa o'tkazildi. Chinakam shijoat va mardlik maydoniga aylangan bellashuvlarda polvonlarimiz gilamda bor mahoratlarini ko'rsatib, mur-asasiz bahs olib bordilar.

Qizg'in kechgan bellashuvlar natijalariga ko'ra 70 kg vazn toifasida Abdurashid Bozorboyev (Servis) birinchi o'rinni oldi. 80 kg vazn toifasida esa Javohir Shukurov (QPM), 90 kg vazn toifasida Sarvar Do'smatov (Navli prokatlash bo'linmasi) barcha raqiblaridan ustun kelib musobaqa g'oliblari bo'lishdi.

Ravshan BOLTABOYEV
tayyorladi.



MUASSIS:
O'zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.

www.uzbeksteel.uz

Muharrir
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
"O'zmetkombinat"
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparati joylashgan.
Tel: 10-19

Gazeta elektron shaklda
oyda ikki marta
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida terilib,
sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Sahifalovchi:
Nigora AXMEDOVA.

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda 03-006 raqam bilan
ro'yxatga olingan.